

YOSHLAR ORASIDA EKSTREMIZM TARQALISHIDA IJTIMOIY TAQMOQLARNING ROLI

*Muhammadiyorova Madina Bahodirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi
mmuhammadiyorova0110@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida ekstremistik g‘oyalalar tarqalishi haqida so‘z boradi. Yosh avlodning axborot maydonida ekstremistik oqimlarga duchor bo‘lish sabablari va omillarini o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, bu jarayonning huquqiy, axboriy va psixologik jihatlari tahlil qilinib, ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashishda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash, axborot va kibermakon vositalaridan to‘g‘ri foydalanish hamda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi.

Аннотация. В данной статье рассматривается распространение религиозных экстремистских идей среди молодежи в современном обществе. Особое внимание уделяется причинам и факторам, способствующим воздействию религиозных экстремистских течений на молодое поколение в информационном пространстве. Также анализируются правовые, информационные и психологические аспекты этого процесса, рассматриваются вопросы обеспечения общественной безопасности, правильного использования информационных и киберпространственных ресурсов, а также положительные возможности социальных сетей в борьбе с экстремистскими идеологиями.

Abstract. This article discusses the spread of religious extremist ideas among youth in modern society. It focuses on the causes and factors contributing to the exposure of the younger generation to religious extremist movements in the information space. The article also analyzes the legal, informational, and psychological aspects of this process, highlighting the importance of ensuring social security, the proper use of information and cyberspace tools, and the positive potential of social media in combating extremist ideologies.

Kalit so‘zlar: ekstremizm, yoshlar va ekstremizm, ijtimoiy tarmoqlar, axborot maydoni, kibermakon, radikallashuv, oqimlar, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, psixologik ta’sir, huquqiy va profilaktik choralar, ijtimoiy xavfsizlik, media savodxonligi, diniy savodxonlik, zamonaviy texnologiyalar.

Ключевые слова: религиозный экстремизм, молодежь и экстремизм, социальные сети, информационное пространство, киберпространство, радикализация, религиозные течения, информационная безопасность, кибербезопасность, психологическое воздействие, правовые и

профилактические меры, общественная безопасность, медиаграмотность, религиозная грамотность, современные технологии.

Keywords: religious extremism, youth and extremism, social media, information space, cyberspace, radicalization, religious movements, information security, cybersecurity, psychological impact, legal and preventive measures, social security, media literacy, religious literacy, modern technologies.

Globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha jabhalariga internet va ijtimoiy tarmoqlar chuqr kirib keldi. Xususan, yoshlar orasida ushbu vositalar asosiy muloqot va axborot manbaiga aylangan. Biroq bu qulayliklar bilan bir qatorda, muayyan xavf-xatarlar ham yuzaga chiqmoqda. Shulardan biri –ekstremistik g‘oyalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga singdirish holatlaridir. Ushbu maqolada ekstremizm tushunchasi, ijtimoiy tarmoqlarning bu boradagi o‘rni va mavjud muammolarga qarshi kurashish yo‘llari tahlil qilinadi. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi “superkorporatsiya” texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg‘unchilikni sodir etishga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinmoqda va e’tibor qaratish muhim bo‘lgan jihat shuki, bu kabi hujumlarning aksariyati yoshlarga qaratilgani bois bu mavzu dolzarb va unga qarshi choralarini ko‘rish juda ham zarurdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan ekstremistik g‘oyalari, yoshlarning hali shakllanmagan dunyoqarashi va e’tiqodiy savodsizligi sababli, tezda ularni o‘z domiga tortmoqda. Bu esa nafaqat jamiyat xavfsizligiga, balki yurt istiqboliga ham jiddiy tahdid soladi.

Bu mavzuga chuqr kirishdan oldin ekstremizm haqida qisqa ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Ekstremizm – bu diniy e’tiqodlar niqobi ostida zo‘ravonlik, radikal qarashlar va jamiyatdagi mavjud tartibga qarshi harakatlarni targ‘ib qiluvchi ideologik yo‘nalishdir. Bunday harakatlar odatda mo‘tadil e’tiqodlardan farqli o‘laroq, boshqa din vakillarini, dunyoviy hukumatni yoki jamiyatning ma’naviy asoslarini rad etishga asoslanadi. Ekstremizm nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki axborot xurujlari, virtual radikalizm shaklida ham namoyon bo‘lmoqda.

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o‘tish mumkin. Ularda IShID go‘yo Islom yo‘lida “qurban” bo‘layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida quyidagicha ta’kidlangan: “Taassufki, ba’zan islom dini va aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining noplak maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha’niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur”.

Bugungi kunda ekstremistik guruuhlar tomonidan olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari tobora kuchayib bormoqda. “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “VKontakte” kabi ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda buzg‘unchi va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi minglab sahifalar va yopiq guruuhlar faoliyat yuritmoqda. Ular yoshlar orasida ishonchli diniy manbalarga tayanmasdan, turli qalbaki hadislar va noto‘g‘ri tafsirlar asosida diniy qarashlarni shakllantirishga urinmoqda.

Bu guruuhlar Islom dinini asliyatidan yiroqlashtirib, uni mutlaqo boshqa, siyosiy va zo‘ravonlikka asoslangan manzara sifatida talqin etadi. Dinni vosita sifatida ishlatib, ular hokimiyatni qo‘lga kiritishni, mavjud siyosiy tuzumni yemirishni va jamiyatni beqarorlashtirishni maqsad qilgan. Bu orqali ular yoshlarning ruhiyati va e’tiqodi bilan manipulyatsiya qilishga, ularni shubha va radikal qarashlar ichiga tortishga intiladi.

Shu jihatdan, virtual makonda olib borilayotgan buzg‘unchi faoliyatni faqat texnik yoki huquqiy chora-tadbirlar bilan emas, balki keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy diniy kontentlarni kengaytirish, yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirish orqali qarshi kurashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa nafaqat davlat, balki butun jamiyatning, xususan, ilm-fan, ta’lim, OAV va diniy tashkilotlarning hamkorlikdagi harakatlarini talab etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlar uchun asosiy axborot manbai, muloqot maydoni va shaxsiy dunyoqarash shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi vositaga aylangan. Ekstremistik guruuhlar aynan shu omildan foydalanib, yoshlar ongiga asta-sekin, sezilmas, lekin izchil ta’sir o‘tkazishga intilmoqda. Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo‘lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo‘lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma’naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim. “Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo‘l urgan bo‘lsan, kerak bo‘lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!”, - degan

qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. "Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiatini qanday bo'lishini aytib beraman", – deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritmoqda deyish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning ekstremistik g'oyalarni yoyishdagi asosiy mexanizmlar haqida gap ketganda, ular quyidagilardan iborat:

1. Algoritmlar orqali maqsadli auditoriyani aniqlash – ko'plab ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining qiziqishlari va faoliyatiga qarab kontent tavsiya qiladi. Bu esa ekstremistik kontentning aynan mos auditoriyaga yetib borishini osonlashtiradi.

2. Vizual va emotsiyal kontentlar orqali manipulyatsiya – video, suratlar, dramatik musiqalar va hikoyalar orqali yoshlarning hissiyotiga ta'sir qilish orqali ularning fikrlashiga ta'sir o'tkaziladi.

3. Virtual hamjamiyat hissi – yoshlar ekstremistik guruuhlar bilan muloqotda bo'lish orqali o'zini "tinglanayotgan", "qabul qilinayotgan" his qiladi. Bu esa ularni guruuhga sodiq bo'lishga undaydi.

4. Shaxsiylashtirilgan murojaatlar – ekstremistik guruuhlar ijtimoiy tarmoqlarda bevosita aloqaga chiqib, yoshlar bilan individual tarzda suhbatlar olib borish orqali ularning ishonchini qozonishga harakat qiladi.

5. Soxta diniy bilimlar va noto'g'ri tafsirlar – diniy matnlar kontekstdan yilib olingan holda talqin qilinadi, bu esa diniy savodsiz yoshlar uchun jiddiy tahdid tug'diradi.

Bu kabi mexanizmlar yoshlarning ongini bosqichma-bosqich o'zgartiradi, ularning ruhiy holatiga ta'sir qiladi va nihoyat, ekstremistik g'oyalarga moyillikni kuchaytiradi. Shuning uchun ham, bu xavfni kamaytirish uchun internetdagi axborot maydonini monitoring qilish, media savodxonlikni oshirish va ijtimoiy tarmoqlarda ijobjiy alternativ kontentlar yaratish muhimdir.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga, kibermakon orqali amalga oshirilayotgan tahdidlar, xususan, ekstremistik g'oyalarni tarqatish xavfi ham ortib bormoqda. Ekstremistik guruuhlar turli onlayn platformalarda nafaqat targ'ibot olib borish, balki yangi tarafdarlarni jalb qilish, ularga "ma'naviy tayyorgarlik" berish, hattoki moliyaviy resurslar yig'ish kabi faoliyatlar bilan ham shug'ullanmoqda.

Kibermakon xavfsizligining zaifligi ekstremistlarga quyidagi imkoniyatlarni yaratmoqda:

Anonimlik: foydalanuvchilarining shaxsini yashirish imkoniyati ularga erkin faoliyat yuritish, qonundan qochish va yangi akkauntlar orqali doimiy ravishda qayta paydo bo'lish imkonini beradi.

Xalqaro ko'lamma targ'ibot: biror ekstremistik kontent bir zumda butun dunyo bo'ylab tarqalishi mumkin, bu esa uni to'xtatishni murakkablashtiradi.

Shifrlangan messengerlar va yopiq guruhlar: ekstremistlar ko‘pincha “Telegram”, “WhatsApp” kabi platformalardagi yopiq guruhlardan foydalanadi, bu esa ularning faoliyatini aniqlash va nazorat qilishni yanada qiyinlashtiradi.

Shuningdek, bu tahdidlar faqat bir mamlakat doirasida emas, balki xalqaro darajada muammoga aylangan. Shu boisdan, ko‘plab mamlakatlar kibermakon xavfsizligini ta’minlashda axborot texnologiyalarini kuzatish, sun’iy intellektdan foydalanish va xalqaro hamkorlik asosida chora-tadbirlar ko‘rmoqda.

O‘zbekiston ham bu borada o‘zining huquqiy bazasini mustahkamlab bormoqda. Xususan, ekstremizmga qarshi kurashish, yoshlarni soxta axborotlardan himoya qilish, ularda media savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha bir qator qonunlar, farmonlar va dasturlar qabul qilingan.

Shunday ekan, yoshlar orasida ekstremistik g‘oyalarning oldini olishda kibermakoni nazorat qilish bilan birga, ularni axborot xurujlariga qarshi immunitet bilan qurollantirish, to‘g‘ri diniy va fuqarolik ongini shakllantirish zarur.

Tanganing ikkinchi tarafi bo’lganidek, garchi ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik g‘oyalarni tarqatish vositasi sifatida xavf tug‘dirayotgan bo‘lsa-da, ular ayni vaqtida ushbu buzg‘unchi oqimlarga qarshi samarali kurashish imkonini ham beradi. To‘g‘ri va maqsadli yondashuv orqali ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongida sog‘lom diniy va fuqarolik qarashlarni shakllantirishda kuchli platformaga aylanishi mumkin. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlar orqali quyidagi ijobiy faoliyatlarni amalga oshirish mumkin:

Ma’naviy-ma’rifiy kontent tarqatish: diniy mutaxassislar, olimlar va dinshunoslar ishtirokida tayyorlangan ishonchli va sodda tilda izohlangan video, maqola va podcastlar keng auditoriyaga yetkazilishi mumkin.

Yoshlar bilan muloqot va savol-javoblar: diniy mavzudagi onlayn jonli efirlar, savol-javob sessiyalari orqali yoshlarning shubha va savollariga to‘g‘ri javob berish mumkin.

Raqamli savodxonlikni oshirish: yoshlarni yolg‘on axborotlarni aniqlash, manbani tekshirish va tanqidiy fikrlashga o‘rgatuvchi kontentlar orqali ularni axborot xurujlariga nisbatan immuniteti qilish mumkin.

Ijobiy rol modellari yaratish: diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan, ma’naviy yetuk, vatanparvar yoshlar haqida hikoyalar, intervylular orqali jamiyatda ijobiy qahramonlar obrazini shakllantirish mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar davlat organlari, diniy idoralar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali hamkorlik platformasiga aylanishi ham mumkin. Axborot xavfsizligi mutaxassislari, psixologlar, blogerlar va pedagoglarning ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtiroki yoshlar ongini zaharovchi oqimlarga qarshi kuchli to‘sinq bo‘la oladi.

Umumiy holda aytganda, bugun axborot iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar

shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalananayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi. Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak. Shundagina turli g‘oyalalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minalashga xizmat qiladi. Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular virtual makonda umummiliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi. Qisqa qilib aytganda, xalqaro hamjamiyat, tashkilotlar, davlatning o‘zi va jamiyat har qancha bu dolzarb muammoga barham berishga harakat qilmasin, eng avvalo bu har bir insonning o‘ziga bog’liq. Axborot resurslaridan foydalananayotgandagi ogohlilik, rasmiy saytlardan ma’lumotlar olish, tushunmagan, bilmagan sayt va internet manzillari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi barcha notanish guruhlarga qo’shilavermaslik kabilarni nazorat qilish har bir shaxsning axborotni tushunishi, unig to’g’ri yoki noto’g’riligini tahlil qila olishiga borib taqaladi. Shu sabali ham, hozirgi kunlarda axborot va kommunikatsiya vositalari orqali ogohlilik mavzusi jar solinib kelinmoqda.

Xulosa. Zamonaviy davrda ekstremizm yoshlar ongiga turli yo‘llar bilan, ayniqsa axborot texnologiyalari vositasida chuqur singdirilmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqaganligi ekstremistik g‘oyalarni yoshlar orasida tez va yashirincha yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, yoshlarning diniy bilimlarining yetarli emasligi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining sustligi va ijtimoiy himoyasizlik holatlari ularni buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan himoyasiz holatga keltirib qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ekstremizmga qarshi kurashish faqat huquqiy choralargina emas, balki keng qamrovli ijtimoiy, pedagogik, axboriy va madaniy ishlarni talab etadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilayotgan ma’rifiy targ‘ibot ishlarni kuchaytirish, yoshlarni media va diniy savodxonlikka o‘rgatish, ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali bu illatga qarshi samarali choralar ko‘rish mumkin. Shuningdek, davlat, diniy idoralar, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi, yoshlar

orasida sog‘lom diniy va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu yo‘lda nafaqat xavf, balki imkoniyat hamdir. Ularni to‘g‘ri va maqsadli foydalanish orqali ekstremistik g‘oyalarning oldini olish, yosh avlodni ogoh va vatanparvar etib tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Hanifa Haydarova. Dinshunoslik. O’quv qo’llanma.
3. Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. O’quv qo’llanma. Toshkent – 2007.
4. Tohir Malik. Diniy ekstremizm va terrorizm: mohiyati, maqsadi va oqibatlari. – T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Quron Karim va Hadislar majmuasi. – T.: “Hidoyat” nashriyoti, turli yillarda.
6. Abduqodirov A. Global xavfsizlik va yoshlar muammosi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020.
7. Mamatov A. Ijtimoiy tarmoqlar va axborot xurujlari. – T.: “Ma’naviyat”, 2021.
8. Xudoyberdiyev N., Hasanov B. Yoshlar va ma’naviy tahdidlar. – T.: TDYU, 2019.
9. Respublikamizda diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: Adolat, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PF-5197-sonli Farmoni “Diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
11. UNESCO. Youth and Violent Extremism on Social Media: Mapping the Research. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.